

IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2026-yil yanvar-mart oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko'paytirishga 13 297,5 mlrd.so'm (dollar ekvivalentida 1,1 mlrd. AQSH doll.) miqdorida investitsiyalar kiritildi va o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 153,4 foizni tashkil etdi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning tegishli davr bo'yicha yillar dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, 2020-yilda –1,6 trln. so'm yoki 88,5 foiz, 2021-yilda – 3,3 trln. so'm yoki 183,7 foizni , 2022-yilda –7,1 trln. so'm yoki 187,4 foizni, 2023-yilda – 6,7 trln. so'm yoki 86,2 foizni 2024-yilda – 10,3 trln. so'm yoki 140,9 foiz va 2025-yilda – 8,7 trln. so'm yoki 80,5 foiz o'sishni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kiritilgan investitsiyalar hajmi

(2026-yil yanvar-mart)

	Investitsiya hajmi		Aholi jon boshi (ming so'm)
	mlrd. so'm	2025-yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
Buxoro viloyati	13 297,5	153,4	6 303,3
Buxoro sh.	2 038,9	113,6	6 680,5
Kogon sh.	261,4	3,2 m.	3 948,5
<i>tumanlar</i>			
Olot	1 838,2	2,2 m.	17 100,0
Buxoro	674,4	118,9	3 639,6
Vobkent	598,9	2,1 m.	3 881,4
G'ijduvon	610,9	46,4	1 837,7
Kogon	996,2	185,6	11 295,1
Qorako'l	1 336,9	138,6	7 570,0
Qorovulbozor	902,3	2,3 m.	43 587,8
Peshku	2 645,4	6,4 m.	19 465,7
Romitan	516,7	43,0	3 324,9
Jondor	331,1	2,3 m.	1 723,5
Shofirkon	546,2	3,7 m.	2 878,0

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari, foizda
(2026-yil yanvar-mart)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari Peshku (o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 6,4 marta ko'p asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2 645,4 mlrd. so'm), Shofirkon (3,7 marta ko'p, 546,2 mlrd. so'm) tumanlarida, Kogon shahrida (3,2 marta ko'p, 261,4 mlrd.so'm) kuzatildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Peshku tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,9 foizi o'zlashtirildi.

Shuningdek, Buxoro shahri jami investitsiyalar hajmidan 15,3 foizini, Olot tumani 13,8 foizini tashkil etmoqda. Qorako'l, Kogon, Qorovulbozor, Buxoro tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 10,1 foizni, 7,5 foizni, 6,8 foizni va 5,1 foizini tashkil etdi.

Kogon shahri va Jondor tumanida investitsiyalar eng kam o'zlashtirilgan bo'lib, har birining viloyatdagi ulushi 2,0 foizi va 2,5 foizini tashkil etdi.

Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar
(2026-yil yanvar-mart)




2026-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Qorovulbozor (43 587,8 ming so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,3 m.), Peshku (19 465,7 ming so'm, 6,2 m.) hamda Olot tumanlarida (17 100,0 ming so'm, 2,2 m.) qayd etildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning taqsimlanishi quyida keltirilgan

	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, foiz	yakunga nisbatan foiz
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	13 297,5	153,4	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	521,2	46,3	3,9
byudjet mablag'lari	171,8	114,1	1,3
suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	6,7	66,3	0,1
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	342,7	35,5	2,5
Markazlashmagan investitsiyalar	12 776,3	169,4	96,1
korxonalarining o'z mablag'lari	1 789,5	2,1 m.	13,4
aholi mablag'lari	797,8	107,1	6,0
to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	10 125,5	171,9	76,2
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	63,5	113,6	0,5


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va
markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari
(yanvar-mart)



Markazlashgan moliyalashtirish manbaalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmi 2026-yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 46,3 foizni tashkil etib, 521,2 mlrd. so'mga etdi. Jami investitsiyalar hajmida esa markazlashgan moliyalashtirish manbaalari hisobidan kiritilgan investitsiyalar hajmining ulushi 3,9 foiz (2025-yilda 13,0 foiz)ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari


(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda)



Shundan, byudjet mablag'lari 171,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 1,3 foiz) tashkil etdi, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 342,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35,5 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 2,5 foiz), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 6,7 mlrd. so'mni tashkil etib (umumiy hajmdagi ulushi 0,1 foiz).

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari

(yanvar-mart jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda)



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan kiritilgan jami investitsiyalar 12 776,3 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,4 foiz (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 96,1 foiz) tashkil etdi. Shundan jami investitsiyalar hajmida eng ko'p ulush to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan investitsiyalar hisobiga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'lib, 10 125,5 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 171,9 foiz tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 76,2 foizni), korxonaning o'z mablag'lari hisobiga 1 789,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 marta ko'pni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 13,4 foiz), aholi mablag'lari hisobiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 797,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 6,0 foiz), tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 63,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,6 foizni tashkil qildi (umumiy hajmdagi ulushi 0,5 foiz).

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Jami investitsiyalar, mlrd.so'm	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan foizda)					
		Respublika byudjeti	Korxonamablag' lari	Aholi mablag' lari	Tijorat bank kreditlari vaboshqa qarzmablag' lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta' minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish
Buxoro viloyati	13 297,5	1,3	13,4	6,0	0,5	78,7	0,1
Buxoro sh.	2 038,9	3,2	15,9	6,9	0,7	73,1	0,2
Kogon sh.	261,4	1,0	12,2	6,6	0,3	79,9	-
<i>tumanlar</i>							
Olot	1 838,2	0,4	20,9	2,9	0,1	75,7	-
Buxoro	674,4	1,7	7,1	11,0	0,7	79,5	-
Vobkent	598,9	0,9	2,6	7,2	0,2	88,8	0,3
G'ijduvon	610,9	2,4	3,9	13,4	4,0	76,3	-
Kogon	996,2	0,4	6,8	6,0	0,9	85,9	-
Qorako'l	1 336,9	1,9	22,4	4,0	0,1	71,6	-
Qorovulbozor	902,3	0,0	48,5	1,3	-	50,2	-
Peshku	2 645,4	0,5	0,3	2,8	0,0	96,4	-
Romitan	516,7	2,8	19,4	15,4	0,5	61,9	-
Jondor	331,1	1,8	7,3	17,2	0,9	72,8	-
Shofirkon	546,2	0,0	4,4	9,6	0,5	85,5	-

**2026-yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalarning texnologik tarkibi**


mlrd. so'm

	jami	davlat	nodavlat
Jami	13 297,5	762,1	12 535,4
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>			
qurilish-montaj ishlari	36,9	80,2	34,2
mashina, uskunarlar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	52,9	17,8	55,1
boshqa xarajatlar	10,2	2,0	10,7

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi


Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Romitan tumani bo'yicha kuzatildi – 61,2 % yoki 316,2 mlrd. so'm, mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Peshku tumani bo'yicha kuzatilib, 93,6 % ni yoki 2 476,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, (jamiga nisbatan % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish va montaj ishlarining ulushi 2025-yilga nisbatan 19,1 punktga pasaygan va mashina, uskunalar, transport vositalari, ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar qiymati ulushi 14,5 punktga oshgan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)
(yanvar-mart)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3453,2 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 26,0 foizi o'zlashtirilgan.

Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari qurilishda 24,5 foizi, tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 12,5 foizi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 12,4 foizi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 11,6 foizi, uy-joy qurilishiga 3,9 foizi, tashish va saqlashga 3,6 foizi va boshqa faoliyat turlariga 5,5 foizi to'g'ri keladi.


Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>umumiy hajmdagi ulushi, foiz</i>
Jami	13 297,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
yangi qurilish	9 614,1	72,3
kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish	2 601,0	19,6
boshqa yo'nalishlar	1 082,4	8,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha umumiy hajmidan yangi qurilishga 9 614,1 mlrd. so'm yoki 72,3 foizi, kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta 260,0 mlrd. so'm yoki 19,6 foizi va boshqa yo'nalishlarga 1 082,4 mlrd. so'm yoki 8,1 foizi to'g'ri keladi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (foizda)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish
- Boshqalar


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan
asosiy kapitalga investitsiyalar
(yanvar-mart)**

	mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	
		2025-yil	2026-yil
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	13 297,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 541,6	5,6	11,6
tog' - kon sanoati	1 659,8	20,8	12,5
ishlab chiqarish sanoati	3 453,2	19,0	26,0
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1 641,2	24,2	12,4
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	18,2	1,3	0,2
qurilish	3 261,9	6,2	24,5

	mlrd.so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	
		2025-yil	2026-yil
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’irlash	316,9	2,3	2,4
tashish va saqlash	483,3	11,2	3,6
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	17,6	0,2	0,1
axborot va aloqa	3,1	0,2	0,0
moliya va sug‘urta faoliyati	4,1	0,0	0,0
ta’lim	118,9	1,4	0,9
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	52,5	0,7	0,4
jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	518,5	6,1	3,9
boshqa faoliyat turlari	206,7	0,8	1,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: ishlab chiqarish sanoatida 3 453,2 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 26,0 foiz), shu jumladan oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 166,8 mlrd.so‘m (1,2 foiz), to‘qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish 552,8 mlrd.so‘m (4,2 foiz), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati turida 368,8 mlrd.so‘m (2,8 foiz), boshqa nometal nominal mahsulotlar ishlab chiqarish faoliyat turida 80,1 mlrd. so‘m (0,6 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turida 1 641,2 mlrd. so‘m (12,4 foiz), suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish faoliyat turida 18,2 mlrd. so‘m (0,2 foiz), tashish va saqlash faoliyat turida 483,3 mlrd. so‘m (3,6 foiz), qurilish faoliyati turida 3 261,9 mlrd. so‘m (24,5 foiz), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’irlash faoliyat turida 316,9 mlrd. so‘m (2,4 foiz), ta’lim sohasida 118,9 mlrd. so‘m (0,9 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 52,5 mlrd. so‘m (0,4 foiz), jami faoliyat turlaridan tashqari turar joy qurilishida 518,5 mlrd. so‘m (3,9 foiz) investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**2026-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy
kapitalga investitsiyalar tarkibi**



Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, hamda kengaytirishga investitsiyalar hajmi 2025-yilning shu davriga nisbatan 18,8 punktga kamaygan.

Buxoro viloyati asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, hamda kengaytirishga investitsiyalar ulushi 19,6 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 78,7 foizni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Peshku (24,3 foiz) va Buxoro shahri (14,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda

	<i>Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi, mlrd. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar, jamiga nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan, kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar</i>
Buxoro viloyati	10 468,2	1 803,1	100,0	78,7
Buxoro sh.	1 490,2	248,6	14,2	73,1
Kogon sh.	208,8	146,2	2,0	79,9
<i>tumanlar</i>				
Olot	1 391,3	68,8	13,3	75,7
Buxoro	536,5	65,7	5,1	79,5
Vobkent	531,9	322,4	5,1	88,8
G'ijduvon	466,0	32,1	4,5	76,3
Kogon	856,3	42,6	8,2	85,9
Qorako'l	957,6	32,2	9,1	71,6
Qorovulbozor	452,6	425,0	4,3	50,2
Peshku	2 549,7	58,9	24,3	96,4
Romitan	319,5	300,7	3,1	61,9
Jondor	240,9	19,4	2,3	72,8
Shofirkon	466,9	40,5	4,5	85,5


**Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish
2026-yil yanvar-mart (mln. AQSH doll.)**



O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 858,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 830,4 mln. AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyava kreditlarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 96,7 foiz tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarning o'zlashtirilgan hajmi 2026-yil yanvar-mart oylarida 10 125,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 171,9 foizni tashkil qildi.

**Ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy
investitsiya va kreditlar tarkibi**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar qayta ishlash sanoati faoliyatiga 2025-yilga nisbatan 9,4 punktga (jamiga nisbatan ulushi 32,2 foiz), tog'-kon sanoatida 18,8 punktga (5,7 foiz), tashish va saqlash faoliyati 7,2 punktga (3,1 foiz) kamaygan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 8,4 punktga (12,3 foiz) oshgan.

Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 518,5 mlrd.so'm yoki 59,8 foizi uy-joy qurilishida o'zlashtirilgan. 2026-yilning yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 313,2 ming kv.m. bo'lgan 925 ta uy-joy (o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,9 foiz), shu jumladan, qishloq joylarida 300,2 ming kv.m. (o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy ob'ektlarni ishga tushirish

(2026-yil yanvar-mart)

	Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan:			
	Ishga tushirildi		o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, foizda	
	<i>jami</i>	<i>jumladan qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>jumladan qishloq joylarda</i>
Turar joylar umumiy maydoni, ming kv.m.	313,2	160,3	103,9	78,9
<i>ulardan:</i>				
yakka tartibdagi turar joylar	300,2	160,3	103,5	78,9
umumta'lim maktablar o'quv o'rnini	-	-	-	-
ambulatoriya-poliklinika muassasalari, smenaga qatnov	-	-	-	-
shifoxonalar, o'rin	-	-	-	-
maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'rin	-	-	-	-

2026-yil yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 300,2 ming kv.m (2025-yilga nisbatan 103,5 foiz) bo'lgan 1 146 xonadonga ega 0,9 ming turar joylar, jumladan 160,3 ming kv.m. (51,2 foiz) qishloq joylarda ishga tushirildi.

2026-yil yanvar-mart oylarida ishga tushirilgan turar joylar

	<i>Ishga tushirildi, jami</i>		<i>Ulardan: yakka tartibdagi turar joylar</i>	
	<i>ming kv.m</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>ming kv.m</i>	<i>o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda</i>
Buxoro viloyati	313,2	103,9	300,2	103,5
Buxoro sh.	51,2	104,9	38,2	102,1
Kogon sh.	7,9	104,1	7,9	104,1
<i>tumanlar</i>				
Olot	22,8	102,4	22,8	102,4
Buxoro	26,9	108,9	26,9	108,9
Vobkent	14,6	106,0	14,6	106,0
G'ijduvon	30,1	101,4	30,1	101,4
Kogon	26,5	104,1	26,5	104,1
Qorako'l	14,8	106,4	14,8	106,4
Qorovulbozor	2,9	110,8	2,9	110,8
Peshku	32,9	102,0	32,9	102,0
Romitan	37,9	103,1	37,9	103,1
Jondor	23,5	100,5	23,5	100,5
Shofirkon	21,2	104,6	21,2	104,6

Umumiy maydoni 300,2 ming kv.m. yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,5 foiz yakka tartibda qurilgan turar joylar ishga tushirildi.

Umumta'lim maktablarini qurish va qayta ta'mirlashga 12,2 mlrd.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu esa noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,4 foizini va ta'lim sohasiga kiritilgan investitsiyalarning 10,3 foizini tashkil qildi.


Sog'liqni saqlash ob'ektlarini qurilishida 12,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 1,5 foizini tashkil qiladi. Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 11,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati. 2026-yil yanvar-mart oylarida 4 618,5 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, 2025-yilga nisbatan o'sish sur'ati 124,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari
(yanvar-mart oylarida)

	2025-yil (mlrd. so'm)	2026-yil (mlrd. so'm)	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Buxoro viloyati	3 671,0	4 618,5	124,0	100,0
Buxoro sh.	685,6	702,2	100,9	15,2
Kogon sh.	85,9	90,6	104,0	2,0
<i>tumanlar</i>				
Olot	173,9	424,7	2,4 m.	9,2
Buxoro	189,6	160,8	83,6	3,5
Vobkent	94,1	96,7	101,3	2,1
G'ijduvon	180,9	186,4	101,5	4,0
Kogon	203,4	179,0	86,7	3,9
Qorako'l	184,2	353,1	188,8	7,6
Qorovulbozor	139,7	487,8	3,4 m.	10,6
Peshku	156,4	162,1	102,1	3,5
Romitan	258,8	267,8	101,9	5,8
Jondor	189,4	192,9	100,3	4,2
Shofirkon	164,2	169,6	101,8	3,7

Hududlar kesimida qurilish ishlarining o‘shish sur‘ati, foizda
(yanvar-mart)




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi. Shundan: yirik qurilish tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 293,1 mlrd. so‘m (otgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 m.), kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 690,6 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,5 foiz), hamda norasmiy sektor bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 634,8 mlrd. so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 foiz) tashkil qilgan.

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 4 516,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,8 foizni (2025-yilga nisbatan oʻsish surʼati 123,7 foizni) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari


	<i>Jami, mlrd.soʻm</i>	<i>shu jumladan mulkchilik shakllari boʻyicha, jami hajmga nisbatan foizda</i>	
		<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Buxoro viloyati	4 618,5	2,2	97,8
Buxoro sh.	702,2	7,9	92,1
Kogon sh.	90,6	0,2	99,8
<i>tumanlar</i>			
Olot	424,7	1,1	98,9
Buxoro	160,8	1,8	98,2
Vobkent	96,7	4,0	96,0
Gʻijduvon	186,4	2,3	97,7
Kogon	179,0	3,4	96,6
Qorakoʻl	353,1	2,1	97,9
Qorovulbozor	487,8	0,4	99,6
Peshku	162,1	1,7	98,3
Romitan	267,8	0,9	99,1
Jondor	192,9	2,4	97,6
Shofirkon	169,6	3,1	96,9

Iqtisodiy foliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
(mlrd.so'm)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 69,2 foizi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 25,2 foizi fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 5,6 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti
(umumiy hajmga nisbatan, foizda)



Hisobot davrida bino va inshootlar qurilishi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 195,6 mlrd. so'mni yoki 2025-yilga nisbatan 146,1 foizni, mos ravishda, fuqarolik qurilishi ob'ektlari bo'yicha qurilish hajmi 1 163,8 mlrd. so'mni (yoki 91,9 foizni), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi 259,1 mlrd. so'm (yoki 95,1 foizni) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi

mlrd. so'm

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar jami</i>	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari</i>		
		<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>Fuqarolik qurilishi ob'ektlari</i>	<i>Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>
Buxoro viloyati	4 618,5	3 195,6	1 163,8	259,1
Buxoro sh.	702,2	313,2	350,6	38,4
Kogon sh.	90,6	41,0	43,8	5,8
<i>tumanlar</i>				
Olot	424,7	382,5	37,4	4,8
Buxoro	160,8	95,4	57,9	7,5
Vobkent	96,7	53,7	38,3	4,7
G'ijduvon	186,4	113,0	64,7	8,7
Kogon	179,0	91,5	77,2	10,3
Qorako'l	353,1	301,2	46,3	5,6
Qorovulbozor	487,8	361,8	19,4	106,6
Peshku	162,1	94,7	59,2	8,2
Romitan	267,8	123,8	129,6	14,4
Jondor	192,9	89,8	90,6	12,5
Shofirkon	169,6	77,8	82,3	9,5

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy qismi bino va inshootlar qurilishi (3 195,6 mlrd.so'm) ga to'g'ri kelib, viloyat umumiy hajmida 69,2 foizni tashkil qildi. Shu bilan birga, fuqarolik qurilishi (1 163,8 mlrd. so'm) ob'ektlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari viloyat umumiy hajmining 25,2 foizni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish (259,1 mlrd. so'm) ishlari 5,6 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so‘m	O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da
Buxoro viloyati	2 189,3	122,2
Buxoro sh.	2 300,6	99,4
Kogon sh.	1 369,2	103,0
<i>tumanlar</i>		
Olot	3 950,6	2,4 m.
Buxoro	867,8	82,1
Vobkent	626,8	99,5
G‘ijduvon	560,8	100,1
Kogon	2 029,2	85,0
Qorako‘l	1 999,6	186,6
Qorovulbozor	23 563,1	3,4 m.
Peshku	1 192,6	100,4
Romitan	1 723,2	100,8
Jondor	1 004,2	98,8
Shofirkon	893,4	101,1

Hududlar kesimida 2026- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni Qorovulbozor tumani — 23 563,1 ming so‘m (yoki 2025- yilning mos davriga nisbatan 3,4 marta ko‘pni), undan keyin mos ravishda Olot tumani – 3 950,6 ming so‘m (yoki 2,4 %), Buxoro shahri – 2 300,6 ming so‘m (yoki 99,4 %), Kogon tumani – 2 029,2 ming so‘m (yoki 85,0 %), Qorako‘l tumani – 1 999,6 ming so‘m (yoki 186,6 %), Romitan tumani – 1 723,2 ming so‘m (yoki 100,8 %) va egalladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag'larni yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta'mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga - barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo'yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo'jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to'liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo'lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya'ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Reinvestitsiya - investitsiyalar bo'yicha daromadlar ko'rinishida olingan va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar; investorning faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) muomalaga kiritish (qayta investitsiyalash).

Davlat mulkchiligi- mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlardir.

Asosiy kapital – kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalari ni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o'z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o'tkazib boruvchi qismi. Asosiy kapital pul shaklida uskuna, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar va boshqalar qiymatidan iborat bo'lib, ular sotib olingan paytdagi bozor narxi bilan

hisoblanadi. Asosiy kapital qiymatining bir qismi har yili mahsulotning ishlab chiqarish va sotish harajatlariga kiradi va amortizatsiya ajratmalari tarzida maxsus amortizatsiya fondida jamg'ariladi.

Investitsiya loyihasi – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko'rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq tadbirlar va ishlar majmui.

Kapital- sarmoya, keng ma'noda o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo'lgan jami vositalar va mablag'la; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini-o'zi ko'paytiruvchi qiymat.

Moliyaviy investitsiyalar- mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlar orqali qo'yilmalar kiritish.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar - aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o'zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta'mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa, aralashmasliklari lozim.

Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.

Qurilish — biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Bu jarayon moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri bo'lib, turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuritish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni hisoblanadi.

Rekonstruksiya — mavjud narsani yaxshilash, amaliy ahamiyatini oshirish, takomillashtirish maqsadida tubdan qayta qurish jarayonidir. Bunda qoldiklariga, yozma manbalarga asoslanib, biror narsa qiyofasini yoki dastlabki ko‘rinishini tiklash, qurish hisoblanadi. Rekonstruksiya chizma, rasm, tasvir, loyiha va h.k. orqali amalga oshiriladi.

Kapital ta‘mirlash — qurilish konstruksiyalarini, shuningdek, muhandislik jihozlarini kommunikatsiyalar bilan tiklash yoki to‘liq almashtirish tushuniladi. Amalda kapital ta‘mirlash binoning tashqi ko‘rinishini to‘liq yoki qisman yangilashda ifodalanishi mumkin.

Joriy ta‘mirlash - bu xizmat ko‘rsatilayotgan ob‘ektning shikastlanish va nosozliklardan o‘z vaqtida va tizimli ravishda himoya qilishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi.

Pudrat shartnomasi — fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko‘ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig‘iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa, ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.